

**DEMOGRAFIK RESURS VA DAVLAT DEMOGRAFIK SIYOSATI: HOKIMIYAT RESURSLARI NAZARIYASI KONTEKSTIDA INSTITUTSIONAL-SIYOSIY TAHLIL****Hikmatov Fathulla Habibullayevich**

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
Xalqaro munosabatlar va ijtimoiy-gumanitar fanlar fakulteti,  
siyosiy fanlar kafedrası dotsenti siyosiy fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD).

[fatkhulla\\_xikmatov@mail.ru](mailto:fatkhulla_xikmatov@mail.ru)**Mirsolixova Laziza Rustam qizi**

O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti,  
amaliy siyosatshunoslik yo'nalishi magistri.

[lazizamirsolixova@gmail.com](mailto:lazizamirsolixova@gmail.com)<https://doi.org/10.5281/zenodo.22077539>

**Annotatsiya.** Maqolada demografik omilning davlat siyosiy hokimiyati resurslari tizimidagi o'rni va bu masalani nazariy talqin qilishning zamonaviy yondashuvlari tahlil qilinadi. Demografik jarayonlar bir-biridan farqli uch nazariy yo'nalishda - hokimiyat resursi, davlat siyosatining institutsional obyekti va milliy xavfsizlik masalasi sifatida - talqin qilinishi ko'rsatib beriladi. Tadqiqotda tizimli tahlil, qiyosiy-tarixiy metod, institutsional tahlil, kontent-tahlil va sabab-oqibat tahlili metodlaridan foydalanildi. Postsovet Rossiya misolida 1992–2007 yillardagi demografik dinamika (aholi sonining 148,5 mln dan 142,9 mln gacha qisqarishi, tug'ilish koeffitsientining 1,17 darajasiga tushishi, 2009 yildagi barqarorlashuv) hamda Xitoyning majburlov xarakteridagi tug'ilishni cheklash siyosati tahlil obyekti sifatida ko'rib chiqiladi. Ilmiy yangilik uch darajani (resurs, institutsional, xavfsizlik) yagona kriteriyalar asosida qiyoslash imkonini beruvchi tahliliy model ishlab chiqilganida namoyon bo'ladi.

**Kalit so'zlar:** demografik resurs, siyosiy hokimiyat resurslari, demografik siyosat, institutsionalizatsiya, depopulyatsiya, demografik xavfsizlik, xavfsizlashtirish (sekyuritizatsiya), demografik o'tish nazariyasi, resurs nazariyasi,

**Аннотация.** В статье анализируется место демографического фактора в системе ресурсов государственной политической власти, а также современные теоретические подходы к его интерпретации. Показано, что демографические процессы трактуются в рамках трёх различных концептуальных направлений - как ресурс власти, как институциональный объект государственной политики и как вопрос национальной безопасности. В исследовании использованы методы системного анализа, сравнительно-исторический метод, институциональный анализ, контент-анализ и причинно-следственный анализ. На примере постсоветской России рассмотрена демографическая динамика 1992–2007 годов (сокращение населения со 148,5 до 142,9 млн человек, снижение суммарного коэффициента рождаемости до 1,17, стабилизация показателей с 2009 года), а также опыт Китая как пример демографической политики принудительного характера. Научная новизна заключается в разработке аналитической модели, позволяющей сопоставить три указанных уровня по единым критериям.

**Ключевые слова:** демографический ресурс, ресурсы политической власти, демографическая политика, институционализация, депопуляция, демографическая безопасность, секьюритизация, теория демографического перехода, теория ресурсов.

**Abstract.** The article analyzes the place of the demographic factor within the system of state political power resources and examines contemporary theoretical approaches to its interpretation.

*Demographic processes are shown to be conceptualized within three distinct frameworks - as a power resource, as an institutional object of state policy, and as a matter of national security. The study employs systemic analysis, the comparative-historical method, institutional analysis, content analysis, and causal analysis. Post-Soviet Russia's demographic dynamics of 1992–2007 (population decline from 148.5 to 142.9 million, total fertility rate falling to 1.17, stabilization from 2009 onward) and China's coercive fertility-restriction policy are examined as case studies. The scientific novelty lies in developing an analytical model that allows comparison of the three levels - resource, institutional, and security - on unified criteria.*

**Keywords:** *demographic resource, political power resources, demographic policy, institutionalization, depopulation, demographic security, securitization, demographic transition theory, resource theory.*

### **Kirish**

Aholi sonining dinamikasi, uning tarkibi va harakati har qanday davlat uchun nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy, balki bevosita siyosiy ahamiyatga ega omil hisoblanadi. Zamonaviy siyosatshunoslikda demografik jarayonlarni faqat statistik ko'rsatkichlar yig'indisi sifatida emas, balki davlat hokimiyati resurs bazasini shakllantiruvchi omil sifatida ko'rish tendensiyasi kuchaymoqda. Bu holat, ayniqsa, postsovet davlatlarida - aholi sonining barqaror qisqarishi (depopulyatsiya) alohida keskinlik kasb etadi.

So'nggi yigirma yildan ortiq vaqt mobaynida siyosiy fanda demografik masala izchil, ammo bir-biridan farqli uchta nazariy asosda talqin qilingan: dastlab u davlat hokimiyati resurslari tizimining tarkibiy qismi sifatida, keyinroq davlat siyosatining institutsional obyekti sifatida, so'nggi bosqichda esa milliy xavfsizlik va suverenitetga tahdid tug'diruvchi omil sifatida ko'rib chiqilgan.

### **Adabiyotlar sharhi**

Demografik omilni siyosiy fanlar nuqtai nazaridan o'rganish an'anasi uch yirik yo'nalishda rivojlangan: A.I. Antonov va V.A. Borisovning demografiya bo'yicha universitet darsligi [10] demografik jarayonlarning umumnazariy tasnifini beradi, G.V. Osipov va S.V. Ryazansev tahriri ostidagi Rossiya demografik rivojlanishi atlas [11] hududiy-statistik ko'rgazmalilik apparatini taqdim etadi. V.E. Bagdasaryanning demografik variativlik nazariyasini asoslashga bag'ishlangan tadqiqoti [12] demografik jarayonlarni izohlashning yangi metodologik modelini ilgari suradi, D.I. Valentey tahriri ostidagi demografik entsiklopedik lug'at [13] esa tarmoq terminologiyasining me'yoriy bazasini beradi. Nihoyat, A.G. Vishnevskiy tahriri ostida chop etilgan "Rossiyaning demografik modernizatsiyasi, 1900–2000" jamoaviy monografiyasi [14] yuz yillik davrni qamrab oluvchi tarixiy-demografik perspektivani taqdim etib, uch yo'nalishning barchasi uchun umumiy tarixiy fon vazifasini bajaradi.

### **Hokimiyat resurslari nazariyasi va demografik omil**

Siyosiy hokimiyat nazariyasida resurslarni tasniflashning bir necha klassik yondashuvi mavjud. A. Etsioni resurslarni majburlov (ma'muriy jazo vositalari), utilitar (rag'batlantirish uchun moddiy ne'matlar) va normativ (qadriyat va ramziy mukofotlar) turlarga bo'ladi [1, b. 35; 23]. D. Iston esa resurslarni siyosiy tizimga nisbatan ichki va tashqi turlarga ajratadi. Unga ko'ra tashqi resurslar tizimdan tashqarida joylashgan moddiy vositalar, ichki resurslar esa tizimning o'zi tomonidan ishlab chiqariladigan tashkiliy tuzilmalar, qoidalar va siyosiy elitaning shaxsiy-tashkiliy qobiliyatidir [1, b. 36; 24]. V.G. Ledyayev hokimiyat resurslarini umumiy va aniq (konkret) turlarga ajratadi: birinchisiga subyekt istalgan obyektga nisbatan qo'llay oladigan

vositalar, ikkinchisiga esa faqat muayyan sharoitda qo'llaniladigan vositalar kiradi [4, b. 221–222]. Bunga yaqin fikrni U. Gemson ham bildirgan bo'lib, u yuqori va past likvidli resurslarni - darhol foydalanish mumkin bo'lganlarni va safarbar qilish uchun vaqt talab etadiganlarni - farqlaydi, R. Martin esa resurs taqchilligi tezisini ilgari suradi: resurs qanchalik kam va zarur bo'lsa, uning siyosiy ahamiyati shunchalik yuqori bo'ladi [1, b. 36].

Aynan resurs taqchilligi uning siyosiy ahamiyatini oshiradi - degan qoida demografik resursni tahlil qilishda muhim hisoblanadi. Hokimiyat resursi, umumiy nazariy ta'rifga ko'ra, "subyekt tomonidan qo'yilgan vazifalarni hal qilish, hokimiyat mavqeyni saqlab qolish va o'z ta'sirini kengaytirish uchun foydalanilishi mumkin bo'lgan jismoniy, ma'naviy va demografik vositalar va imkoniyatlar majmui" sifatida belgilanadi [1, b. 34], bunda "resurs" tushunchasi "zaxira" va "salohiyat" tushunchalaridan siyosiy jarayonga real jalb qilinganlik mezonini orqali ajratiladi [1, b. 35]. Demografik omilga nisbatan bu farqlash amaliy ahamiyat kasb etadi: hozirda mehnat va harbiy xizmatga layoqatli aholi - demografik resursning o'zi bo'lsa, kelajakda tug'ilishi mumkin bo'lgan avlod - demografik salohiyatdir. Postsovet davlatlarida kuzatilgan uzoq muddatli aholi qisqarishi sharoitida bu ikki tushunchani farqlash davlat siyosatini rejalashtirish nuqtai nazaridan muhim ahamiyat kasb etadi [1, b. 174].

Shuni ta'kidlash lozimki, demografik omilni siyosiy-iqtisodiy tahlil qilish an'anasi o'zi ancha uzoq tarixga ega. T.R. Maltusning aholi qonuni haqidagi klassik asari [18] ushbu an'ananing ilk nazariy asoslaridan biri hisoblanadi, u aholi o'sishi bilan resurslar o'rtasidagi nomutanosiblik muammosini birinchilardan bo'lib ilmiy muomalaga kiritgan edi. Zamonaviy davrda esa S.P. Kapitsaning global aholi o'sishi qonuniyatlariga bag'ishlangan tadqiqoti [16] demografik jarayonlarni matematik-nazariy modellashtirish an'anasini davom ettiradi, bunda aholi dinamikasi endi nafaqat tavsiflovchi, balki miqdoriy bashorat qilinadigan hodisa sifatida ko'riladi. A.G. Vishnevskiyning aholi takror ishlab chiqarishi va jamiyat o'rtasidagi tarixiy bog'liqlikka bag'ishlangan fundamental ishi [15] esa demografik o'tishni uzoq tarixiy davr kontekstida ko'rib chiqishga imkon beradi.

#### *Davlat demografik siyosatining institutsional mexanizmlari*

Demografik jarayonlarni davlat boshqaruvi obyekti sifatida ko'rib chiqadigan yo'nalish demografik o'tish nazariyasiga (F. Notestein, R. Lesthaeghe, D. van de Kaa) tayanadi va bu nazariyani xalqaro tashkilotlar tomonidan qo'llaniladigan prognostik modellar bilan uyg'unlashtiradi [2, b. 45]. Ushbu yo'nalish doirasida davlat siyosatining samaradorligi uning institutsionalizatsiya darajasi orqali baholanadi: siyosat qanchalik ko'p vazifani vaqtinchalik amalga oshiriladigan chora-tadbirlardan doimiy amal qiluvchi huquqiy-institutsional mexanizmga aylantira olsa, u shunchalik barqaror natija beradi [2, b. 7, 10]. Bu mezon demografik siyosatni moliyaviy-iqtisodiy rag'batlantirish, ijtimoiy infratuzilma va migratsiya siyosati kabi aniq mexanizmlar majmuiga bog'laydi.

Nazariy asos sifatida bu yo'nalish ikkita fundamental manbaga tayanadi: I.I. Yeliseyeva tahriri ostidagi demografiya va aholi statistikasi bo'yicha darslik bo'lib, [21, b. 505] u statistik-metodologik apparatni bersa, V.I. Yakunin, S.S. Sulakshin, V.E. Bagdasaryanlarning davlat demografik siyosatini boshqaruvning mustaqil yo'nalishi sifatida asoslashga bag'ishlangan monografik tadqiqoti [22, b. 66] esa amaliy-siyosiy tavsiyalar majmuini taqdim etadi. Bundan tashqari, demografik siyosatning eng radikal namunasi sifatida Xitoyning tug'ilishni cheklash siyosati alohida qiziqish uyg'otadi: 1970-yillarda ishlab chiqilgan qonuniy cheklov choralari va oilani rejalashtirish markazlarining keng tarmog'i tufayli mamlakat 1980-yillar boshidan e'tiboran taxminan 250 million "ortiqcha tug'ilish"ning oldini olishga erishgan [21, b. 505; 2, b.

60]. Bu misol metodologik jihatdan alohida qiziqarli, chunki u demografik o'tish nazariyasining universalligiga shubha uyg'otadi - Xitoy misolida tug'ilish darajasining pasayishi tabiiy-evolyutsion jarayon emas, balki bevosita maqsadli davlat siyosatining natijasi bo'lgan [2, b. 60].

Shu bilan birga, bunday qattiq cheklov choralari demokratik tamoyillarga zid bo'lib, shaxsning erkin tanlov huquqini inkor etadi va uzoq muddatli istiqbolida jinsiy-yosh tarkibidagi nomutanosiblik, mintaqaviy mehnat resurslari tanqisligi va aholining tezlashgan qarishi kabi yangi tizimli muammolarni keltirib chiqargani ham qayd etiladi [2, b. 60].

Institutsional yondashuvning empirik bazasini kengaytirishda L.L. Ribakovskiyning depopulyatsiyaning ikkinchi bosqichiga bag'ishlangan tadqiqoti [6], A.Yu. Shevyakov va A.Ya. Kirutaning tengsizlik, iqtisodiy o'sish va demografiya o'rtasidagi bog'liqlikka oid monografiyasi [7], V.I. Jukovning Rossiya demografik salohiyatiga bag'ishlangan monografiyasi [5], shuningdek I.I. Beloborodovning oilaviy-demografik siyosat texnologiyalariga [8] va A.V. Noskovaning tug'ilish darajasi pastligining ijtimoiy jihatlariga [9] bag'ishlangan tadqiqotlari muhim o'rin tutadi. M.A. Kluptning demografik rivojlanish nazariyasini institutsional perspektivada tahlil qiluvchi maqolasi [17] alohida e'tiborga loyiq, chunki u aynan institutsional yondashuvning nazariy asosini — demografik jarayonlarni ijtimoiy institutlar (oilalar, davlat, diniy tashkilotlar) faoliyati natijasi sifatida talqin qilishni ishlab chiqadi. A.Ya. Kvashaning sovet davri demografik siyosatiga bag'ishlangan tarixiy-institutsional tadqiqoti [19] esa institutsionalizatsiya jarayonining uzoq muddatli, tarixiy o'lchamini ko'rsatadi: sovet davridagi demografik siyosat tajribasi ko'p jihatdan postsovet davr institutlarining shakllanishiga asos bo'lgan.

#### *Demografik xavfsizlik va uning siyosiy diskursda talqini*

Sonngi yillarda ilmiy va siyosiy disko'rsda demografik jarayonlarni nafaqat ijtimoiy-iqtisodiy hodisa, balki milliy xavfsizlik va davlat suverenitetining strategik omili sifatida talqin etuvchi yondashuv sezilarli darajada faollashdi [3, b. 994–995]. Ushbu yo'nalish doirasida demografiya masalasi davlatning barqarorligi va geosiyosiy pozitsiyasiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi element sifatida baholanadi. Ayniqsa, demografik xavfsizlik hamda migratsiya oqimlarini harakatlantiruvchi omillarni kompleks tahlil qilishga bag'ishlangan monografik tadqiqotlar [20] bu sohada muhim nazariy-metodologik poydevor yaratib beradi. Mazkur ishlar demografik tahdid va xatarlarni shunchaki sifat darajasida emas, balki aniq statistik-uslubiy apparat va indikatorlar tizimi orqali o'lchash, baholash hamda ularni prognozlash imkoniyatini taqdim etadi.

Umuman olganda, ushbu ilmiy konsepsiya doirasida demografik jarayonlarga bo'layotgan tashqi ta'sir mexanizmlari alohida diqqat markazida turadi. Xususan:

- Kognitiv va mafkuraviy ta'sir: Xalqaro tashkilotlar hamda global tuzilmalar tomonidan ilgari surilayotgan reproduktiv salomatlik, oilani rejalashtirish va gender tengligi modellari jamiyatga shunchaki institutsional darajada emas, balki bilvosita - qadriyatlar, ijtimoiy normalar va axloqiy tushunchalarni o'zgartirish ("kognitiv" yo'l) orqali singdiriladi.

- Institutsional o'zgarishlar: Bu kabi tashqi kognitiv ta'sirlar oqibatida jamiyatning an'anaviy demografik xatti-harakati va asrlar davomida shakllangan ijtimoiy institutlar (oilalar, nikoh, avlodlar o'rtasidagi vorisiylik) transformatsiyaga uchraydi.

- Demografik oqibatlar: Natijada, ushbu qadriyatlar siljishi bevosita tug'ilish darajasining kamayishi, nikoh yoshining ortishi hamda oilalar mustahkamligining susayishiga olib keluvchi hal qiluvchi omillardan biri sifatida talqin qilinadi [3, b. 1219].

Shu tariqa, ushbu yondashuv vakillari global ijtimoiy standartlarning kirib kelishini shunchaki zamonaviylashuv (modernizatsiya) emas, balki davlatning demografik mustaqilligi va milliy o'zligiga nisbatan yashirin gibridda ta'sir vositasi sifatida baholaydilar.

Uch yo'nalishning qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, aholi qisqarishi turli xulosaga olib kelishi mumkin: resurs nazariyasi nuqtai nazaridan bu strategik tanqislik, institutsional nuqtai nazardan bu boshqaruv muammosi, xavfsizlik nuqtai nazaridan esa bu tashqi tahdid sifatida talqin qilinadi.

## Metodologiya

Tadqiqotda quyidagi metodlar qo'llanildi:

- Tizimli tahlil - demografik omilni davlat hokimiyati resurslari umumiy tizimining tarkibiy qismi sifatida ko'rib chiqish uchun;
- Qiyosiy-tarixiy metod - resurs, institutsional va xavfsizlik paradigmalarning nazariy shakllanish dinamikasini kuzatish uchun;
- Institutsional tahlil - davlat demografik siyosatining institutsionalizatsiya darajasini baholash uchun;
- Kontent-tahlil - mavzuga oid ilmiy adabiyotning tadqiqot obyekti, predmeti, ilmiy yangiligi va xulosalarini ifodalovchi qismlarini ajratib olish va taqqoslash uchun;
- Sabab-oqibat tahlili - demografik ko'rsatkichlar dinamikasi bilan siyosiy-institutsional javob choralari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun.

## Natijalar

### Postsovet davlatlarida demografik dinamika

Postsovet Rossiya misolida keltirilgan ma'lumotlarga ko'ra, 1992–2007 yillar oralig'ida aholi tabiiy kamayishi 13,1 million kishini tashkil etgan (kompensatsiyalovchi migratsiyani hisobga olmaganda), umumiy aholi soni esa 148,5 milliondan 142,9 million kishigacha qisqargan [2, b. 85]. Shu davrda tug'ilish ko'effitsienti 1,17 darajasigacha pasaygan, 1990-yillar o'rtalarida esa yiliga 2 million 300 mingdan ortiq kishi vafot etgan, ulardan 739,9 mingtasi mehnatga layoqatli yoshdagi aholi bo'lgan [2, b. 86]. 2000–2012 yillar oralig'ida mamlakatdan tashqariga 4 milliondan ortiq kishi ko'chib ketgan [2, b. 87]. Shu bilan birga, 2009 yilga kelib aholi soni 17 yildan keyin birinchi marta qisqarishni to'xtatgan, 2007–2012 yillar oralig'ida esa umumiy tug'ilish ko'effitsienti sezilarli o'sish ko'rsatgan [2, b. 91]. Bu dinamika davlat tomonidan 2007 yildan boshlab qo'llanilgan demografik siyosat choralarning ma'lum darajada natija bergani haqida xulosa chiqarishga imkon beradi.

### 1-jadval. Postsovet davlatlarida asosiy demografik ko'rsatkichlar dinamikasi [2, 85-91]

| Ko'rsatkich                       | Davr            | Qiymat                         |
|-----------------------------------|-----------------|--------------------------------|
| Aholi sonining qisqarishi         | 1992–2007       | 148,5 mln → 142,9 mln          |
| Tabiiy kamayish (migratsiyasiz)   | 1992–2007       | 13,1 mln kishi                 |
| Umumiy tug'ilish ko'effitsienti   | 1990-y. o'rtasi | 1,17                           |
| Vafot etganlar soni               | 1994            | 2 mln 303,9 ming               |
| Tashqi migratsiya (chiqib ketish) | 2000–2012       | 4 mln dan ortiq                |
| Aholi qisqarishining to'xtashi    | 2009            | 17 yildan keyin birinchi marta |

Ushbu jadval shuni ko'rsatadiki, demografik inqiroz chiziqli emas, balki to'lqinsimon xarakterga ega bo'lgan - bu, o'z navbatida, faqat bitta vaqt kesimiga (masalan, inqiroz cho'qqisiga) asoslangan statik-pessimistik talqinlarni tarixiy kontekstda nisbiylashtirish zarurligini ko'rsatadi.

*Resurs sifatida demografik omil: tarkibiy tahlil*

Yuqorida keltirilgan nazariy asosga tayanib, demografik resursni davlatning boshqa resurslarini - harbiy, iqtisodiy, ma'muriy - safarbar qilish qobiliyatiga bevosita ta'sir ko'rsatuvchi omil sifatida ko'rish mumkin. Demografik resursning qisqarishi zanjir reaksiyasi kabi boshqa resurs turlarining ham zaiflashishiga olib keladi: mehnat zaxirasi qisqaradi, harbiy xizmatga yaroqlilar soni kamayadi, soliq bazasi torayadi [1, b. 174]. Mehnatga layoqatli yoshdagi aholi orasidagi yuqori o'lim darajasi [2, b. 86] - bu taxminni bilvosita qo'llab-quvvatlaydi.

*Davlat siyosatining institutsionalizatsiyasi*

Davlat demografik siyosati mustaqil institutsional soha sifatida shakllanishi uchun u nafaqat deklarativ maqsadlarga, balki aniq mexanizmlar majmuiga tayanishi kerak [2, b. 7]. Siyosatning samaradorligini institutsionalizatsiya darajasi orqali baholash mezoni bu yondashuvning amaliy qiymatini oshiradi, chunki u demografik siyosatni institutsional-huquqiy mexanizmlar darajasiga ko'taradi [2, b. 10].

*Xalqaro tajriba: majburlov siyosatining chegaralari*

Xitoy misolida ko'rilgan majburlov xarakteridagi demografik siyosat muhim metodologik saboq beradi: davlat demografik jarayonlarga qanchalik kuchli ta'sir ko'rsata olsa-da, bunday boshqaruvning o'zi yangi, ko'pincha bashorat qilib bo'lmaydigan institutsional va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi [2, b. 60]. Agar davlatning demografik jarayonlarga faol, hatto majburiy aralashuvi uzoq muddatli istiqbolda yangi tizimli muammolarga olib kelishi mumkin bo'lsa, demak har qanday "favqulodda tahdid" ritorikasiga asoslangan shoshilinch siyosiy chora ham xuddi shunday nomaqbul oqibatlarga olib kelishi mumkin.

**Muhokama**

Tadqiqot natijalari va ularning muhokamasi doirasida quyidagi asosiy xulosalarni shakllantirish mumkin:

Birinchidan, resurs, institutsional hamda xavfsizlik (sekyuritizatsiya) yondashuvlari demografik omilni davlatning tizimli barqarorligini belgilovchi hal qiluvchi element sifatida birdek e'tirof etsalar-da, ushbu omilning mohiyatini turlicha talqin qiladilar. Bu kabi nazariy konseptual farqlar tasodifiy xarakterga ega bo'lmay, balki har bir ilmiy yo'nalish shakllangan konseptual-siyosiy kon'yunkturani aks ettiradi. Xususan:

- *Resurs paradigmasi* - postsovet makonidagi ijtimoiy-iqtisodiy inqiroz va noaniqliklar sharoitida;

- *Institutsional paradigma* - davlat apparati hamda institutsional tuzilmalarning barqarorlashuvi davrida;

- *Xavfsizlik paradigmasi* esa geosiyosiy qarama-qarshiliklar va mafkuraviy trayektoriyalarning keskinlashuvi sharoitida yetakchi o'ringa chiqqan.

Ikkinchidan, metodologik tavsifiga ko'ra, resurs va institutsional yondashuvlar neytral-deskriptiv (tavsifiy-tushuntiruvchi) uslubga tayangan holda, asosan empirik va statistik ma'lumotlarni tahlil qilishga yo'naltirilgan. Aksincha, xavfsizlik yondashuvi aksar hollarda preskriptiv (normativ-baholovchi) xarakterga ega bo'lib, bu holat uning obyektiv-ilmiy neytrallik darajasiga nisbatan ma'lum savollarni yuzaga keltirishi mumkin.

Shunga qaramay, bu xususiyat tadqiqot obyektining (sekyuritizatsiya amaliyotining) o'ziga xos tabiatidan kelib chiqadi, chunki xavfsizlik diskursini tahlil qilish uning ichki amaliyotida ishtirok etishni emas, balki tashqi tanqidiy-distantсион kuzatuvni talab etadi.

### **Xulosa**

O'tkazilgan tahlil shuni ko'rsatdiki, demografik omilni siyosiy talqin qilish resurs paradigmasidan institutsional paradigmaga, undan esa xavfsizlik paradigmasiga tomon izchil evolyutsiyani boshdan kechirgan. Bu uchta yondashuvning har biri o'ziga xos tahliliy qiymatga ega, biroq ularning birortasi ham demografik omilni to'liq qamrab olmaydi. Taklif etilgan uch darajali model bu bo'shliqni bartaraf etishga qaratilgan bo'lib, demografik resursning hokimiyat tizimidagi o'rnini, davlat siyosatining institutsional mexanizmlarini va bu masalaning siyosiy diskursda qanday xavfsizlashtirilishini o'zaro bog'laydi. Keltirilgan statistik ma'lumotlar (148,5 mln - 142,9 mln aholi qisqarishi, 1,17 darajasidagi tug'ilish koeffitsienti, 2009 yildagi barqarorlashuv) demografik inqirozning chiziqli emas, balki to'lqinsimon xarakterga ega ekanini tasdiqlaydi, bu esa istalgan bitta paradigma doirasida statik xulosa chiqarishning yetarli emasligini ko'rsatadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. Жернакова Т.А. Демографический ресурс в системе ресурсов политической власти в постсоветской России: дис. ... канд. полит. наук: 23.00.02. - Саратов, 2003. - 199 с.
2. Качалкин В.М. Государственная демографическая политика в современной России: состояние и приоритеты совершенствования: дис. ... канд. полит. наук: 23.00.02. - Орёл, 2016. - 244 с.
3. Рудакова Е.К. Обеспечение демографической безопасности России в условиях когнитивных угроз: дис. ... д-ра полит. наук: 5.5.4. - Нижний Новгород, 2022. - 840 с.
4. Ледяев В.Г. Власть: концептуальный анализ. - М.: РОССПЭН, 2001. - 380 с.
5. Жуков В.И. Демографический потенциал России: монография. - М.: Изд-во РГСУ, 2010. - 460 с.
6. Рыбаковский Л.Л. Накануне выбора: второй этап депопуляции или демографический рост? // Народонаселение. - 2013. - № 4. - С. 39-49.
7. Шевяков А.Ю., Кирута А.Я. Неравенство, экономический рост и демография: неисследованные взаимосвязи: монография. - М.: М-Студия, 2009. - 192 с.
8. Белобородов И.И. Социальные технологии формирования семейно-демографической политики в России в условиях демографического кризиса: дис. ... канд. соц. наук: 22.00.08. - М., 2008. - 178 с.
9. Носкова А.В. Социальные аспекты решения демографической проблемы низкой рождаемости // Социологические исследования. - 2012. - № 8. - С. 60-71.
10. Антонов А.И., Борисов В.А. Лекции по демографии: учебник для вузов. - М.: Академический проект; Альма Матер, 2011. - 592 с.
11. Атлас демографического развития России / под ред. Г.В. Осипова, С.В. Рязанцева. - М.: Экономика, 2009. - 186 с.
12. Багдасарян В.Э. К вопросу о формировании теории демографической вариативности как новой объяснительной модели демографических процессов: монография. - М.: Научный эксперт, 2006. - 40 с.

13. Демографический энциклопедический словарь / редкол.: Д.И. Валентей (гл. ред.) [и др.]. - М.: Сов. энциклопедия, 1985. - 608 с.
14. Демографическая модернизация России, 1900-2000 / под ред. А.Г. Вишневого. - М.: Новое издательство, 2006. - 608 с.
15. Вишневский А.Г. Воспроизводство населения и общество: История, современность, взгляд в будущее. - М.: Финансы и статистика, 1982. - 287 с.
16. Капица С.П. Парадоксы роста: законы глобального развития человечества. - 2-е изд., доп. и перераб. - М.: Альпина нон-фикшн, 2012. - 204 с.
17. Клупт М.А. Теория демографического развития: институциональная перспектива // Общественные науки и современность. - 2005. - № 2. - С. 139-149.
18. Мальтус Т.Р. Опыт о законе народонаселения // Антология экономической классики: в 2 т. - М.: Эконов, 1992. - Т. 2. - 486 с.
19. Кваша А.Я. Демографическая политика в СССР. - М.: Финансы и статистика, 1981. - 200 с.
20. Методология анализа демографической безопасности и миграции населения: монография / Н.Д. Эпштейн, Е.А. Егоров, М.В. Карманов [и др.]. - М.: Финансы и статистика, 2013. - 168 с.
21. Демография и статистика населения: учебник / И.И. Елисеева, Э.К. Васильева, М.А. Клупт [и др.]; под ред. И.И. Елисеевой. - М.: Финансы и статистика, 2006. - 688 с.
22. Государственная политика вывода России из демографического кризиса: монография / В.И. Якунин, С.С. Сулакшин, В.Э. Багдасарян [и др.]; под общ. ред. С.С. Сулакшина. - М.: Экономика: Научный эксперт, 2007. - 896 с.
23. Etzioni A. A Comparative Analysis of Complex Organizations: On Power, Involvement, and Their Correlates. - P. 40-43
24. Easton D. A Systems Analysis of Political Life. - N.Y., 1967. - P. 448